



MAKTABDA ONA TILI DARSLARIDA MILLIYLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI MATNLAR BILAN ISHLASH

Tillaboyeva Gulruh Sohibbek qizi
Farg'ona davlat universiteti,
Sirtqi bo'lim Ijtimooiy gumanitar
fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matn tushunchasi haqida ma'lumot, matnni tahlil qilish tamoyillari, maktabda ona tili darslarida milliylikni shakllantiruvchi matnlar bilan ishlash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: matn, tilshunoslik, milliy, yaxlitlik, nutq, zamon, sarlavha, naqlar, rivoyat

РАБОТА С ТЕКСТАМИ, ФОРМИРУЮЩИМИ НАЦИОНАЛЬНОЕ СОЗНАНИЕ, НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В ШКОЛЕ

Аннотация: В статье представлена информация о понятии текста, принципах анализа текста, а также о работе с текстами, формирующими национальное сознание, на уроках родного языка в школе.

Ключевые слова: текст, лингвистика, национальный, целостность, речь, время, заголовок, пословицы, повествования

WORKING WITH TEXTS THAT FORM NATIONAL IDENTITY IN MOTHER TONGUE LESSONS AT SCHOOL

Annotation: This article provides information about the concept of text, the principles of text analysis, and working with texts that form national identity in mother tongue lessons at school.

Keywords: text, linguistics, national, integrity, speech, time, title, proverbs, narration

KIRISH

Matn (lotincha: textus — mato; birikma) — ma'lum moddiy tashuvchiga bog'langan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va to'liq ketma-ketligidir. „Matn“ tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud: immanent (kengaytirilgan, falsafiy qarashlarga yo'g'rilgan) va reprezentativ (asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirib, using ichki tuzilishini uchinchi shaxs tomonidan yoritishga e'tibor

qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondoshuv esa, matnni tashqi voqelik haqidagi ma'lumotni taqdim etishning maxsus shakli sifatida ko'rib chiqishni anglatadi.

Tilshunoslikda „matn“ atamasi keng doirada, jumladan, og‘zaki nutq namunalarida ham qo‘llaniladi. Matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida o‘rganiladi. I. R. Galperin matn xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tar ekan, unga quyidagicha ta’rif beradi: „Matn bu yozma hujjat shaklida ob‘ektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma'lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir. Matnning semantik yaxlitligi mavjud voqelikdagi bog‘lanish va bog‘liqliklar (ijtimoiy hodisalar, tabiat hodisalari, inson, uning tashqi ko‘rinishi va ichki dunyosi, jonsiz tabiat ob‘ektlari va boshqalar)ni aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutq predmetining birligi gapning mavzusidir. Mavzu esa matnning semantik o‘zagi, uning ixchamlashtirilgan va umumlashtirilgan mazmunidir. „Matn mazmuni“ tushunchasi nutqning axborot mazmuni kategoriyasi bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, faqat matnga xosdir. U o‘quvchiga hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ularning barcha sohalaridagi ahamiyatini muallifning individual munosabati orqali xabardor qiladi, unga semantik yaxlitlik beradi.

Katta matnda yetakchi mavzu bir qator kichik tarkibiy mavzularga, kichik mavzular esa o‘z navbatida paragraflar (mikro-mavzular)ga bo‘linadi. Matnda bayon qilinayotgan fikrning to‘liqligi matnning semantik yaxlitligi bilan bog‘liq bo‘lib, to‘liq tugallangan, yaxlit tugal mazmunga ega matn mazmunni to‘liq aks ettiruvchi sarlavhani tanlash orqali amalga oshiriladi. Shu tariqa matnning semantik yaxlitligidan uning quyidagi xususiyatlari kelib chiqadi:

Matn — bu ma'lum bir mavzudagi bayonot;

Matn so‘zlovchining niyatini, asosiy g‘oyasini ifodalab beradi;

Har qanday hajmdagi matn nisbatan avtonom (to‘liq) bayonotdir; Matnda gaplar mantiqiy jihatdan bog‘langan bo‘ladi;

Matn uchun uning mazmuniga mos sarlavha tanlash mumkin; To‘liq matn odatda boshlanish va yakunga ega bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqi sohasida jiddiy izlanish olib borgan M.Yo‘ldoshev badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.
2. Makon va zamon birligi tamoyili.
3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili.
4. Badiiy matndagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyillari.
5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili.

Shulardan matnni tahlil qilishning beshinchi tamoyiliga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili. Matn ichida qo‘llanilgan o‘zga matn ko‘rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkorning asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning asar

mazmuni bilan qay darajada uyg‘unligi badiiy mazmun ifodasidagi o‘mi, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog‘lanishidagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda favqulodda zarurdir. Rivoyat, mif, naqlar bevosita xalq milliyligini, urf-odat va an‘analarni o‘zida aks ettiradi.

Maktab ona tili darsliklarida ham bunday matnlar nihoyatda ko‘p. Xususan, 11- sinf ona tili darsligiga to‘xtaladigan bo‘lsam, darslikda milliyligimizni shakllantiruvchi matnlarni uchratishimiz mumkin. Misol tariqasida " Nutqdagi ta‘qiqlar" mavzusida o‘zbek adabiyotining nodir durdonasi hisoblangan " O‘tkan kunlar " asaridan keltirilgan parcha berilgan. Birgina shu matn misolida ham milliy mentalitetimiz unsurlarini ko‘rishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Tahliliy metod: Ona tili darslarida ishlatiladigan matnlarni o‘rganish, ularning tarkibi va pedagogik maqsadlarini tahlil qilish.

Eksperimental metod: Maktablarda milliylikni shakllantiruvchi matnlar bilan ishlashning samaradorligini o‘rganish uchun darslarda tajriba o‘tkazish.

Sotsiologik metod: O‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan intervyu va anketalar o‘tkazish, ular orqali matnlar bilan ishlashdagi muvaffaqiyatlarni va qiyinchiliklarni aniqlash.

Kuzatuv metodlari: Maktab darslarini kuzatish va dars jarayonida milliylikni shakllantiruvchi matnlar bilan ishlashning ta‘sirini baholash.

Milliylik va milliy ong: Milliylikni shakllantirishning ahamiyati va uning shaxsiy rivojlanishdagi roli. Milliy ongni shakllantirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, matnlar va ularni taqdim etish usullari muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik tamoyillar: Milliylikni shakllantirishda interaktiv o‘qitish metodlari, o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirish va ularning muloqotga kirishishiga yordam berish.

TALILLAR VA NATIJALAR

Matnlarni tanlash: Milliylikni shakllantiruvchi matnlar, masalan, xalq og‘zaki ijodi, she‘rlar, hikoyalar, maqolalar, tarixiy matnlar kabi turli xil janrlarda bo‘lishi kerak. Bu matnlar o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini va madaniyatni o‘rgatishga yordam beradi.

Matnlarni tahlil qilish: Matnlarni o‘qitishda o‘quvchilarga ularning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam berish. Ularning tahliliga tarixiy, madaniy, ma‘naviy va lingvistik yondashuvlarni qo‘llash.

Faoliyat usullari: O‘quvchilarga matnlar asosida turli faoliyatlarni (diskussiyalar, insho yozish, dramatizatsiya qilish, rolli o‘yinlar) tashkil etish. Bu faoliyatlar orqali milliylikni rivojlantirish va o‘quvchilarni o‘z fikrini erkin ifodalashga o‘rgatish mumkin.

Milliylikni shakllantirishga oid tavsiyalar: Tadqiqotning yakunida ona tili darslarida milliylikni shakllantiruvchi matnlar bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish. O‘quvchilarga milliy qadriyatlarni o‘rgatish uchun o‘qituvchilarga yordamchi materiallar yaratish.

Tadqiqot faqat ma'lum bir geografik hududdagi maktablarda o‘tkazilishi mumkin, va bu usullar faqat o‘rta maktab o‘quvchilariga mos bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot vaqtinchalik va resurslar bilan cheklangan bo‘lishi mumkin, shuning uchun tadqiqot faqatgina muayyan guruhlar bilan amalga oshiriladi.

XULOSA

Tadqiqot metodologiyasi maktabda ona tili darslarida milliylikni shakllantiruvchi matnlar bilan ishlashning pedagogik ahamiyatini ochib beradi. Matnlarni tahlil qilish va interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilarda milliylikni shakllantirish jarayoni samarali bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchilarga o‘zligini anglashda va vatanparvarlik ruhini rivojlantirishda yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA “SHAXS” TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 182-196.

2. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO ‘LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.

3. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. *Scientific progress*, 3(4), 506-514.

4. qizi Tillaboyeva, G. S. (2023). FORMATION STAGES OF ANCIENT PERIOD DRESSES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).